

## SAID AHMADNING ASARLARIDA HAJVIYOTNI VUJUDGA KELTIRISHDA LEKSIK BIRLIKLARDAN FOYDALANISH MAHORATI

**Jumanazarova Marg‘iyona**

Termiz davlat universiteti talabasi

### ANNOTATSIYA

*Said Ahmadning bir qancha hikoyalarida hajviyotni yuzaga keltiruvchi leksemalar ko‘rsatib, tahlil qilingan.*

**Kalit so‘zlar:** hikoya, leksema, hajviyot, yumor, satira, kinoya, ijodiy mahorat.

Tildagi leksik birliklar ijodkorning hissiy va ta’siriy maqsadini yuzaga chiqarishda muhim ahamiyat kasb etadi. Yozuvchi yoki shoir metod va usul jihatidan leksik birliklardan o‘z maqsadiga muvofiq foydalana olar ekan, u ko‘zlagan maqsad va mazmun o‘z ifodasini asarda yetarlicha namoyon etadi. Said Ahmad ham asarlariga jo bo‘lgan hajviyotni, yumorni, kinoyani leksik birliklardan unumli va o‘z o‘rnida foydalangan holda yuzaga kelgan mazmunni o‘z maromida ifodalay olgan yozuvchilardandir. Bilamizki, Said Ahmad o‘z asarlarida hajviyani mahoratli yuzaga chiqarishi, bu o‘rinda leksemalardan ayni kerakli va mazmunga aloqadorlarini tanlab qo‘llay olishi bilan adabiyotshunos va tilshunoslar, shuningdek, ta’siriy quvvati bilan xalqimiz orasida hurmatda bo‘lgan yozuvchilarimizdandir. Said Ahmad aynan ijodiy mahoratini hajviy asarlar yaratishda namoyon etgan va bu borada Abdulla Qahhor an’analarini davom ettirgan ijodkordir.

Olim va professor Umarali Normatov aytganidek: “uzoq yillik mashaqqatli umri davomida boshiga tushgan og‘ir ko‘rgulik asoratlarini, mislsiz fojialarini, judolik, yolg‘izlik iztiroblarini hazil-kulgi bilan yengib o‘tayotgan” ijodkor Said Ahmad ko‘plab hajviy hikoya va sahna asarlari yaratdi. Adib o‘z asarlarida so‘zdan shunchaki

hajviylik yaratibgina qolmay, bu soʻzlardan asarning butun mazmunini ochib beruvchi, hajviy maʼno tashuvchi birlik sifatida foydalandi.

Said Ahmad hikoyalarida yumorni yuzaga chiqarishda tildagi leksemalardan unumli foydalandi. Shu oʻrinda taʼkidlab oʻtish kerakki, hajviyot oʻz oʻrnida ikki guruhga ajraladi: satira va yumor. Satira guruhiga kiruvchi hikoyalarda shaxslar, zamona achchiq kulgi ostiga olinadi. Bunda davrning ogʻriqli nuqtalari, shaxslarning qusurli kamchiliklari ustidan kulgi qilinadi. Zotan, hajviyotning bunday usulida yaratilgan asarlarda yozuvchi “jamiyat va uning taraqqiyoti uchun jiddiy zarar keltiradigan, ijtimoiy xavfli illatlarni koʻradi”<sup>1</sup>. Said Ahmadning “Sobiq oʻgʻri”, “Qaysar”, “Xomtalash” kabi hikoyalari aynan satirik usulda yozilgan. Hajviyotning ikkinchi turi yumorda asosiy maqsad “badiiy asarda kishilar, voqea-hodisalar ustidan yengil, doʻstona, begʻaraz kulish”<sup>2</sup> orqali hajviya yuzaga keltirishdir. Said Ahmadning “Bir oʻpichning bahosi”, “Xanka bilan tanka”, “Yelim”, “Yoʻgʻon tepa” kabi hikoyalarida yumorga asoslangan kulgi yetakchilik qiladi.

“Xanka bilan tanka” hikoyasida Said Ahmad shaharlik kelin Xanifani tasvirlashda “latta qoʻgʻirchoq”, “hangi”, “bejirim” leksemalaridan uning koʻrinishini tasvirlashda foydalanibgina qolmay, hikoyaga hajviylik darajasini oshirish maqsadida ham foydalangan. Hikoyada Tatiboy obrazini “tanka”, “gʻuli-gʻuli tovuq” kabi soʻzlar bilan tasvirlaydi va ushbu leksemalar orqali oʻquvchida yengil kulgu uygʻotadi. Yoki “Yelim” hikoyasida yangi kelgan direktorni tanimay, unga hammomda orqa ishqalatib, bu ishidan uyalib har kuni direktordan kelib, uzr soʻrab ketadigan Musaxon pochcha direktor tili orqali yozuvchi tomonidan “yelim” soʻzi orqali taʼriflanadi va hikoya nomi ham “yelim” deb ataladi. Hikoyada yozuvchi Said Ahmad “yelim” leksemasi bilan uning “yopishqoq” maʼnosi orqali hikoya qahramonining asosiy xususiyatlaridan biriga urgʻu berib oʻtadi va yengil kulgi yuzaga keltiradi.

<sup>1</sup> Куронов Д. Адабиётшунослик луғати / Д.Куронов, З.Мамажонов, М.Шералиева. – Тошкент: Akademnashr, 2013. – 273 б.

<sup>2</sup> Куронов Д. Адабиётшунослик луғати / Д.Куронов, З.Мамажонов, М.Шералиева. – Тошкент: Akademnashr, 2013. – 378 б.

Yozuvchi “Kataysa” hikoyasida xo‘jayini Bekning o‘g‘li Erkinjon hikoya qahramoni Qosimjonning mashinasi eshigiga qalam bilan surat solayotganda Qosimjonning ahvoli “mashina devorini emas, Qosimjonning yuragini qirayotgandek” deya tasvirlanadi. Ushbu o‘rinda o‘quvchi ijodkor foydalangan “yuragini qirayotgandek” o‘xshatish birligi orqali qahramonning holatini anglay oladi, tasavvur etadi.

Shuningdek, “Sag‘ana” hikoyasida o‘lmay turib o‘ziga janoza o‘qitayotgan Boqi xalfani yozuvchi “o‘lik”, “murda” kabi ma’noga teskari leksemalar orqali asar hajviyasi ta’siri kuchini oshirgan. Hikoyada Boqi Xalfaga nisbatan ijodkor Said Ahmad “o‘lgan” leksemasi orqali kinoya qiladi. Asarda: “Xuddi shu kuni yer kurrasi bitta musulmon bandasidan chala-yarim judo bo‘ldi”, – deya keltiriladi. Yozuvchi parchada keltirgan “chala-yarim” leksemasi hikoyaning hajviya darajasini eng yuqori nuqtaga olib chiqadi.

Xulosa qilib aytganda, Said Ahmad hikoyalarda hajviyotning, shuningdek satira, yumorning yuzaga chiqishi, aks etishi rang barangdir. Yozuvchi asarlarida kulgi tashuvchi leksemalar o‘zgachaligi, takrorlanmasligi, okkazionalligi bilan ajralib turadi. Shuningdek, hikoyalarda yengil yoki achchiq kulgi ostiga olingan kishilar shaxsiyati va davr holati birgina leksemada butun ifodasini topish xarakteri Said Ahmadning so‘z qo‘llay bilish mahoratining yuksak ekanligini dalillaydi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Куронов Д. *Адабиётшунослик лугати* / Д.Куронов, З.Мамажонов, М.Шералиева. – Тошкент: *Akademnashr*, 2013. – 4088 б.
2. Said Ahmad. *Tanlangan asarlar II jild*. – Toshkent: “Sharq” nashriyoti, 2000. – 270 b.
3. Said Ahmad. *Qorako‘z Majnun*. – Toshkent: “O‘zbekiston” nashriyoti, 2013. – 232 b.